

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISI VA SPORT PEDAGOGI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xudaybergenova Elmira Umaraliyevna

Tashkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lif kafedrasini
katta o'qituvchisi.

Po'latova Shahnoza Ikrom qizi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'onona filiali Ta'lif sifatini
nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi.

Nasriyeva Dilafruz Sadreddinovna

Parkent tumani ixtisoslashtirilgan maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolamiz pedagog, trener, o'qituvchi bilan talaba, o'quvchi orasidagi munosabatlar qanday bo'lishi, bir-biriga bo'lgan muomalalari, ular bilan qanday shug'ullanishlari kerakli, pedagogik mahoratlari, matonati, insonni ichiga kira olish yo'llari haqida fikr yuritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, o'qituvchi, talaba, o'quvchi, mahorat, matonat, tajriba, qobiliyat, qonuniyat, jarayon, komponent, bilimdonlik.

Аннотация: данная статья посвящена тому, какими должны быть отношения между педагогом, тренером, учителем и учеником, учеником, как они относятся друг к другу, как они должны взаимодействовать, педагогические навыки, настойчивость, способы проникновения в человека.

Ключевые слова: педагог, учитель, ученик, ученик, мастерство, настойчивость, опыт, способности, законность, процесс, компонент, эрудиция.

Annotation: this article reflects on what the relationship between an educator, a trainer, a teacher and a student, a student should be, how they should deal with each other, pedagogical skills, perseverance, ways to get into a person.

Keywords: educator, teacher, student, skill, perseverance, experience, ability, law, process, component, erudition.

Pedagoglik kasbi mamlakatimizda eng sharafli kasblardan biridir. O'qituv-chilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Ilgari bir o'qituvchining muhim hayotiy o'rni o'z ishining ustasi bo'lishdir. O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniylari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Mahorat - bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada usta bo'lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog'idagina go'zaldir. Pedagogik mahoratga yetishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta’lim va tarbiya ishida insoniyat to‘plagan barcha tajribalardan ratsional

foydalinish qobiliyatini ko‘zda tutar ekan, demak, u yetarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo‘ladi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlikning bosh ko‘rsatkichi bu insonga shaxsga yo‘nalganlikdir.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig‘ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko‘ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo‘nalishlarini tushunish imkoniyatini ta’minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Bilimdonlik o‘qituvchi uchun o‘ta muhim bo‘lgan uchta holat bilan bog‘- langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqozo etadi:

1. odamlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishda madaniy muloqotda bo‘lish;

2. fani sohasi bo‘yicha axborotlarni qabul qila olish va uni o‘qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;

3. o‘quv axborotlarini boshqalarga bera olish;

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to‘rtta komponenti bilan xarakterlanadi:

1. shaxsga, insonga yo‘nalganlik;

2. pedagogik voqelikni izchil idrok etish;

3. fän sohasiga yo‘nalganlik;

4. pedagogik texnologiyalarni egallah.

Hozirgi ta’lim sharoitida kasbiy-pedagogik bilimdonlik yana uch komponent bilan to‘ldiriladi:

1. bilimdonlik, umuman, o‘z faoliyatini jahon pedagogik madaniyati darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil elish qobiliyati, unga va vatanimizdagи pedagogikaga integratsiyalasha olish;

2. o‘z safdoshi tajribasi va innovatsion tajribalar bilan o‘zaro samarali munosabat o‘rnatish qobiliyati;

3. o‘z tajribalarini umumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi yoki trener o‘quvchilarga biror sport turini o‘rgata olishi uchun ular bilan munosabatga kirishishi shart. Munosabat odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlardan kelib chiqadi. Munosabat kishilar o‘rtasida faoliyat davomida axborot ayriboshlashni o‘z ichiga oladi.

Munosabatning ikkinchi jihatni muloqotga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki, xatti-harakatlar bilan ham ayriboshlanadi. Uchinchi jihatni munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqozo qilishdir. Shunday qilib, yagona munosabat jarayonida shartli ravishda kommunikativ (axborot o‘tkazish), interfaol (o‘zaro birgalikda idrok etish) jihatlarini alohida ko‘rsatish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi pedagogi u yoki bu so‘zni ishlatganda anglashilmovchilikka yo‘l qo‘ymasligi kerak. Mohiyatlar tizimi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi pedagogi quyidagi qobiliyatlar bo‘lishi lozim.

Bilish qobiliyali - jismoniy tarbiya va sport sohasi pedagogi o‘z fani va sohasini o‘quv kursi hajmida emas, balki, chuqurroq bilishi, kuzatishi, nazariy va amaliy ishlanmalarni va zamonaviy sportda ro‘y berayotgan voqealardan xabardor bo‘lishi lozim.

Tushuntira olish qobiliyati - jismoniy tarbiya va sport sohasi pedagogi mamlaktimiz sportchilarining imkoniyatlari va jahon sportidagi o‘ziga xos yutuqlarni solishtirishi va bizning mintalitetimizga mos keladigan amaliy tajribalarini tatbiq eta olmog‘i kerak.

Kuzatuvchanlik qobiliyati - jismoniy tarbiya va sport sohasi pedagogi tarbiyalanuvchilarning ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq psixologik kuzatuvchanlikdir.

Nutq qobiliyati - nutq yordamida, trener o‘z shug‘ullanuvchilariga imo-ishora vositasida o‘z (fikr tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati.

Trenerning nutqi aniq, jonti, obrazli, talaffuz jihatdan yorqin. ifodali his-hayajonli bo‘lishi iozim.

Tashkilotchilik qobiliyati - sport jamoalarini shakllantirish jipslashtirish muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, o‘z ishini to‘g‘ri uyuştirishni nazarda tutadi. Sport jamoalarini shakllantirish bosqichlarini to‘g‘ri belgilab olishi va unda olib boriladigan birgalikdagi do‘stona munosabatlar, jipslikni maqsad sari birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olishi lozim. Sport jamoalariga kelgan har bir ko‘ngilli sportchilarni sport jamoasida o‘z o‘rnini egallay olishi uchun tashkilotchilik faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltira olishi uchun yaqin keljak, o‘rtalik keljak, olis keljakda amalga oshiradigan rejallashtirilgan ishlarni loyihalashtirishi va kclajakni ko‘ra olishi muhim hisoblanadi. Trener uyushgan sport jamoasini shakllantirish uchun tarbiyaviy ishlarni, tashkiliy ishlarni, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish uchun pedagogik trening, davra suhbatlari, dunyo sport reytingida nufuzga ega bo‘lgan mashhur sportchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish ijobjiy samara beradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha qobiliyatlar jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va sport pedagogida ham nazariy, ham amaliy jihatdan yuqori darajada bo‘lishi kerak. Bu o‘z o‘rnida sport faoliyatini amalga oshirayotgan sportchilarda reyting natijasini yuqori darajaga ko‘tarishida poydevor vazifasini o‘taydi.

Mahoratli o‘qituvchi va trener o‘quvchilar faoliyatini baholashda ehtiyyotkor bo‘lishi lozim. Zero, noto‘g‘ri qo‘yilgan baho o‘quvchi shaxsiga salbiy ta’sir ko‘rsatib qolmay, balki, uning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi. O‘quvchi faoliyatini baholashda pedagogik tajribasiga tayanib ish ko‘rish maqsadga muvofiqdir:

Trener o‘quvchilarga amaliy yondashish balki, unga shaxs sifatida munosabatda bo‘lishi lozim. O‘quvchini keljakka ishonch ruhida tarbiyalashi zarur; trener tomonidan sport jamoasining har bir a’zosining mehnatini rag‘batlantirishi va uning dangasaligi va qobiliyatsizligi uchun jazo vositasi

bo‘lmasligi zarur. O‘quv jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish, pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri nizo sanaladi.

Nizo qarama-qarshi, bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan kuchlar to‘qnashuvi, ikki yoki undan ko‘p taraflar orasida o‘zaro kelishuvning yo‘qligini, manfaatlar to‘qnashuvini ifodalovchi

ziddiyat pedagogik nizo trener-sportchi, pedagog va talaba, ota-on, hamkasblar yoki rahbariyat o'rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashushi, o'zaro qarama-qarshiliklardir. Pedagogik nizo bir qator belgilarga ega. Unga xos bo'lgan asosiy belgililar quyidagilardir:


- inqiroz;
- anglashilmovchilik;
- kutilmagan hodisa;
- zo'riqish;
- noqulavlik, ichki yoki tashqi xavotir, bartaraf etish qiyin bo'lgan qo'rquv;
- Pedagogik nizoning asosiy turlari

Trener tomonidan adolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlardagi yakka hokimlik-ka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Trener pedagogik nizolarni hal etishda bir qator yo'l tutadi. Ular orasida eng samarali yo'llar quyidagilar sanaladi:

1. Shug'ullanuvchi bilan nizoning ta'sir doirasini kengaytirmaslik;
2. Trener tomonidan qulay yechimlarni taklif qilinishi;
3. Pedagogik faoliyat jarayonida trener tomonidan man etilgan usullarni qo'llamaslik, shakllardan foydalanmaslik;
4. Sportchilarning shikoyatlari sonini qisqartirish.
5. Ikkinch darajali masalalarni ham uzviy ravishda hal qilib borish.
6. Nizoga kirishgan subyektlar shaxsini kamsitadigan so'zlardan foydalanmaslik;

Pedagogik nizolarni hal etishda bir qator usullar ham qo'llaniladi. Ular orasida eng samarali usullar quyidagilar sanaladi.

Nizoni hal qilishning pedagogik va ma'muriy usullari - pedagoglar pedagogik nizo ishtirokchilariga pedagogik, pedagogik yordam ko'rsata olish imkoniyatiga ham ega bo'lishlari zarur. Bu borada ko'rsatiladigan yordam turlari quyidagilar sanaladi:



Trener pedagogik nizolarni hal qilishda keltirilgan usullardan samarali foydalanish yo'llarini bilishi lozim. Pedagog trener tomonidan nizolarni qilishning pedagogik usullari va nizolarni hal qilishning ma'muriy usullari mukammal egallashi shart. Trener tomonidan

nizolarning yordam turlarini bilish talab etiladi. Nizolarni hal qilishni to‘g‘ri ta’minlay oladigan jismoniy tarbiya o‘qituvchisi hamda trener tomonidan pedagogik komplektlar kelib chiqilishi oldi olinadi. Bu ish faoliyatining assosiy omil va mezoni shisoblanadi.

O‘quvchilarning ijodiy faolligiga rahbarlik qilishda, ular havaskorligining turli shakllarini tashkil qilishda, tarbiyaning vazifalarini hal etish yo‘lida mahorat va pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini mukammal bilishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi. Pedagoglik mehnatining hamma turlari uning ixtisosi, o‘quv-tarbiya jarayonining xarakteri, ish sharoitlariga qarab muayyan xususiyatlariga ega. Bu jihatdan jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatining o‘ziga xos xususiyati to‘g‘risida juda ham ko‘p gapirishimiz mumkin.

P.F. Lesgaft jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga ham maxsus talablar qo‘yar edi. “Jismoniy ta’lim rahbari..... o‘qitishga aloqador bo‘lgan har bir kishi kabi, - deb yozgan edi u, yaxshi ma’lumotli kishi bo‘lishi, fanini, shuningdek, yosh organizmining formasi va rivojlanishi faoliyatini yaxshi bilishi kerak. Lekin asosiysi - uning intizomliligi, vazmin, o‘z harakatlarini nozik boshqara oladigan kishi bo‘lishi lozim” degan fikrni aytib o‘tgan.

Jismoniy tarbiya va sport pedagogi maktabda katta ommaviy ishlarni olib borishadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faollarni tarkib toptiradi va tarbiyalaydi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi murakkab sharoitlarda ishlaydi. Sport zali sinf xonasiga qaraganda ancha katta, jismoniy tarbiya darslaridagi sharoit vaqtı-vaqtı bilan almashinib turadi (sport maydonchasi, gimnastika zali, basseyn, chang‘i mashg‘ulotiari uchun ochiq joy va boshqalar). O‘quvchilar xilma-xil va uyushmagan holda foydalananishganda, ko‘pincha xavfli bo‘lgan asboblarni qo‘llaydilar. Bundan tashqari, o‘quvchilarning yuqori darajadagi harakat faolligi yomon oqibatlarni jarohatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bir kunda turli yoshdagil o‘quvchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar alohida kuch - g‘ayrat talab etadi, shunday ekan, aniq sinf (o‘quvchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasini hisobga olish lozim bo‘ladi. Umumiylim maktablaridagi jismoniy tarbiya darsida o‘qituvchi faqat aqliy kuchini emas, balki, ko‘pgina jismoniy kuch ham sarflaydi, negaki, u tez-tez harakatlarni ko‘rsatib beradi, o‘quvchilar sport snaryadlarida mashq qilayotganda ularni ehtiyyotlaydi va hokazo.

Bolalar va o‘smlar sport maktabi treneri ishining o‘ziga xos xususiyatlari.

Sport pedagogi trenerning faoliyati jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ishidan jiddiy farq qiladi. U shug‘ullanuvchilarning sport qobiliyatini aniqlash va rivojlanishiga, ularning sportdagi hayot yo‘lini oldindan aytib berishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. D.M. Yoqubova, Sh.Sh. Usmanova - Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. Toshkent «O‘zkitobsavdonashriyoti» 2020.
2. Po‘latova Shahnoza Ikrom qizi. Voleybol bilan shug‘ullanishning inson organizmiga ijobjiy ta’siri. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10009881>. International Journal of Education, Social Science & Humanities.

3. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Voleybolchilar tayyorlash jarayonini boshqarish. issn 2181-351 volume 2,
special issue 12 october 2023, <https://erus.uz/>
4. Pulatov A.A., Isroilov SH.X., Qurbanova M.A. Voleybol // J.T. III kurs talabalari uchun ixtisoslik fanidan ma'ruza matnlari. – T., 2003. - 44 b.
5. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi Voleybol o'yinini o'rgatishning pedagogik asoslari. Vol. 2 No. 11 (2023): Educational Research in Universal Sciences (ERUS).
6. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbining o'ziga xos xususiyatlari va talablari. E Conference Zone. 2022/11/22
7. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiga qiziqishini shakllantirish samaradorligini oshirish shartlari va metodlari. vol. 2 no. 8 (2023): theory and analytical aspects of recent research.
9. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Ways to determine students' interest and abilities in the profession of a physical education teacher. 2023: icde-turkey-jan
10. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi.Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini oshirishda sport to'garaklarining o'rni. 2022: icde-turkey-september.
11. Po'latova Shahnoza Ikrom qizi. Принадлежность к разным возрастным группам особенности тренировки волейболистов. ISSN 2181-0664 Doi journal 10/26739/2181-0664 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0850-2023-7-2>
12. Soyibnazarov A.I. "The Purpose, Objectives And Status Of Training School Teachers Using An Online Platform." JournalNX 6.09 (2020): 67-71.
13. Soyibnazarov A. I. "Development of Study Skills in the Development of School Teachers on the Basis of Public Online Open Courses." International Journal on Orange Technologies 2.11 (2020): 10-13.
14. Икромжонович, Сойибназаров Аббосжон. «Развитие учебных навыков в развитии школьных учителей на основе публичных онлайн-открытых курсов». Международный журнал по оранжевым технологиям 2.11 (2020): 10-13.
15. Сойибназаров А. (2021, июнь). ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ОНЛАЙН-КУРСОВ В СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ. В международных научно-исследовательских конференциях (стр. 129-132).